

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**FARG'ONA VILOYAT PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRIHS
INSTITUTI**

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI KAFEDRASI

**Furqat tumani XTMΦMTTБga qarashli
16-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot o`qituvchisi
Tursunova Nazoratxonning bir soatlik**

**DARS
ISHLANMASI**

Farg`ona - 2012 yil

Mavzu: Darak, so`roq, buyruq va his-hayajon gaplarda tinish belgilari

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'zbek tilida buyruq gaplarni ifodalash va ularda tinish belgilarini qo'llash qoidalari bilan tanishadilar.

Tarbiyaviy: Badiiy adabiyot asarlarini tahlil qilish orqali o'zlaridagi xislatlar haqida o'ylab ko'radilar.

Rivojlantirish: Badiiy matnlarda qo'llanilgan buyruq gaplarni tahlil qilish malakalarini rivojlantiradilar.

Dars turi: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantirish.

Darsda foydalanilgan metodlar: Juftlikda va kichik guruhda ishlash.

Darsda foydalanilgan jihozlar: plakat, umumiy test , tarqatmalar.

Darsning rejasi:

1. Buyruq gap haqida tushuncha.
2. Buyruq gap mazmuni.
3. Buyruq gap kesimning ifodalanishi va tinish belgisi.

Buyruq gapni hosil qiluvchi vositalar.

Darsning borishi

I.Tashkiliy qism:

- a) she'riy tarzda salomlashish
- b) navbatchi axboroti, davomat.
- v) darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O`tilgan mavzu yuzasidan takrorlash.

Uy vazifalarini tekshirish.

O'rganilgan mavzusi yuzasidan mustahkamlash suhbatini o'tkazish.

III. Yangi darsning bayoni.

O`quvchlar to`rt guruhga bo`linadilar. 1-guruh "Bahor", 2-guruh "Yoz",

3-guruh "Kuz", 4-guruh "Qish" deb nomlanadi.

Darslikda berilgan 53-mashq asosida "Bolalikning begubor tongi" mavzusida og`zaki matn tuziladi.

1-guruh "Darak gap" bo'yicha, 2-guruh "So`roq gap" bo'yicha, 3-guruh "Buyruq gap" bo'yicha, 4- guruh "His-hayajon gap" bo'yicha hikoyalar tuzadilar.

Tayanch so`zlar: o`g`il, qiz, baxtli, gul, kapalak, varrak, bog`, chamanzor, mehribon, g`amxo`rlik, o`ynamoq, yugurmoq, maza qilmoq, xursand bo`lmoq.

Guruhlarning ijodiy ishlari taqdimot qilinadi va baholanadi.

I. Mustahkamlash.

1. "O'zbekiston – mustaqil davlat". Bu gapning oxiriga nima uchun nuqta qo'yiladi.
2. So'roq belgisining ishlatilishiga misollar keltiring.
3. Undov belgisi qanday gaplarda ishlatiladi.

V. Uyga vazifa. 55-mashq. Rivoyatni o'qib, undagi mazmun haqida o'ylang. Fikrlaringizni daftarga yozib keling.

Aytishlariicha, ikki qo'shni bir parcha yerni talashib qolishibdi.

- Bu yer meniki! – debdi biri.
- Yo'q! Bu yer meniki! – debdi ikkinchisi.

Shunda yerdan sado chiqib:

- Ikkoving ham meniki! – debdi.

Shu sado tufayli ikki qo'shni murosaga kelib, yarashishibdi.